14. Xomiladorlik paytida aspirin kaysi muddatlarda ishlatilmaydi

*38 xaftatadan keyin
8-10 xaftatagacha
15-16 xaftatagacha
25-26xaftatalarda

15. Glomerulonefritni kuzgatuvchisi

*Streptokokk

Stafilakokk

Ichak taekchalari

Viruslar

16. Glomerulonefritning kaysi formasida xomiladorlik ruxsat etiladi

*Latent formasida

Gipertonik formasida

Nefrotik formasida

Kushma formasida

17. Soglom xomiladorlarda 28-32 xaftatalikda konning xajmi necha prostentga oshadi

*40% ga

25-30%

15-20%

10% ga

18. Yurak kon-tomir kasalliklarida xomiladorlar stasionar kaysi muddatlarda etkiziladi

*12xaftatagacha, 28-32 xaftata, 37-38 xaftata

5-8xaftata, 16 xaftata, 40 xaftata

10-11 xaftata, 28 xaftata, 40 xaftata

11 xaftata, 34-36 xaftata

19. Xomiladorlarda siydikning solishtirma ogirligi kancha

*1015-1028

1006-1012

1025-1033

1035-1037

20. Xomiladorlarda siydikning sutkalik mikdori kancha

*800,0-1100,0

600,0-1000,0

1800,0-2600,0

2000,0-2200,0

21. Norma soatlik siydik ajralishi kancha

*60 ml

100 ml

30 ml

150 ml

22. Xomiladorlarda gipertoniya kasalligida kanda y fizio terapev- tik muolajalarni berish mumkin

*Sherbak buyicha yoka

elektroforez stink bilan korin pastiga

dorsonvalgizastiya

ultrazvuk

23. Normal xomiladorlikda Nicheporenko buyicha siydikning taxlilida leykostit,eritrostit va stilindrlarning nisbati;

*4:2:1

2:1:1

6:2:2

2:2:2

24. Surunkali glomerulonefritning klinik formalarini kursating

*yashirin

gipertonik

nefrotik

kursatilganlarning xammasi

25. Xomiladorlarda glomerulonefritning asosiy asoratlari

*preeklampsiyaning erta boshlanishi
xomilaning notugri joylashuvi
yuldoshning pastga joylashuvi
yirik xomila

26. Glomerulonefritning kaysi formasida xomiladorlikga ruxsat beriladi

*yashirin
gipertonik
aralash
nefrotik

27. Utkir buyrak etishmovchiligining engil formasida anuriya kancha davom etadi

*2 sutka
2 oy
12 soat
3-20kun

28. Hepatopatiya bilan asoratlangan utkir buyrak etishmasligida kanda y s imptom xarakterli

*Yukoridagilarning xammasi
Bemorning kuzgaluvchanligining oshishi
Enstefalopatiya
Kon bosimining kutarilishi

29. Kaysi xollarda kattik tushak rejimi 2-3 xaftata mobaynida tayinlana di

*kushma mitral porog stenozu ustunligi bilan kon aylanishining 2 darajali buzilishi
mitral klapaning etishmovchiligi dekompensastiyasiz
mitral klapaning etishmovchiligi dekompensastiyasiz
kushimcha mitral porog etishmovchilik ustuni bilan kon aylanishi buzilishi

30. Yurak etishmovchiligining P"B" stadiyasida kanda y uzgarishlar buladi

*katta va kichik kon aylanish sistemalarida dimlanish buladi
organlarida kaytmas uzgarishlar buladi
kon aylanishi etishmaslik belgilari fakat xarakat kilganda paydo b-di
nafas etishmaslik yurak urishini sezish doimiy buladi

31. Pielonefritning xomila uchun xavfli bulgan asoratlari

*xomilaning ona kornida infekstiyalanishi
gemolitik kasallik
xomilaning kundalang joylashishi
xomilaning ona kornidagi nuksoni

32. Yurak poroglarining kaysi birida tugrukning II davrini akusherlik kiskichlari erdamida olib borish kerak

*mitral klapaning etishmovchiligi dekompensastiyali K.A.B.II darajali
mitral klapaning etishmovchiligi dekompensastiyasiz
kushma mitral porog etishmovchiligiustunligi bilan K.A.B. O-darajali
kushma mitral porog stenozu ustunligi bilan K.A.B.O-darajali

33. Kandli diabetda kesar kesish operastiyasiga bulgan kursatmalar

*II-III darajali klinik tor chanok
yuldoshning oldinda yotishi
kandli diabetning subklinik formasi
kandli diabetning xamma formasi

34. Kompensirlangan gemorragik shokda infuzion terapiyaning xajmida kon va kon urnini bosuvchi suyukliklar nisbati

*1:2

1:1

2:1

3:1

35. Kaysi xomiladorlik patologiyasini ayollar maslaxatgoxida davolash mumkin

*anemiya engil darajasi

xomila tushish xavfi

utkir pielonefrit

normal joylashgan yuldoshning vaktidan oldin kuchishi engil darajasi

36. Tugurklar orasidagi interval kancha bulganda kam konlik kuzatiladi

*1 va 2,5 yil

2,5 yil 3 yil

3-4 yil

5 yil

37. Pielonefritning kayta kuyidagi xuruji muddatlarda kuzatiladi

*22 - 28 xaftatada

20 xaftatagacha

32-36 xaftatagacha

tugruk paytida

38. Buyrak kasalligida kanaka asoratlar kuzatiladi

*preeklampsiya

muddatdan oldingi tugruk

yuldoshning oldin etishi

Mavzu bayoni

TEA – bu juda keng tarkalgan kasallik bulib, er sharining 25 % axolisi zararlangan. Kupincha t.t.a. bilan yosh bolalar (usish davrida) kiz bolalar jinsiy balogatga etish davrida

(xayz koni ketishi okibatida), xomiladorlar kasallanadilar. VOZ ma'lumotlariga kura xomilador aellarning 80-90 % kamkonlik bilan ogriydi. Oxirgi 10 yil ichida kamkonlik kasalligi 6 martaga oshgan.

T.T. anemiyasi xomilador ayollarda xam ona va bola uchun kup asoratlar keltiradi. Preeklampsiya, xomiladorlikni kutara olmaslik, xomilaning ona kornida surunkali gipoksiyasi, xomila rivojlanishining orkada kolishi, tugruk kuchlari anomaliyasi va boshkalar shular jumlasiga kiradi.

Kamkonlikning rivojlanishi xomilador aellarda jigar patologiyasining sababi bulishi mumkin. (surunkali gepatit, gepatoz). Xomiladorlikgacha kamkonlikning sabablari xayz stiklining kup mikdorda bulishi (giperpolimenoreya, bachadon miomasi, adenomioz), oshkozon – ichak traktidan kon ketishlar (gastrit, oshkozon va 12 barmokli ichak yara kasalliklari, venalarning varikoz kengayishi, gemorroy) va shu bilan birga temir moddasining oshkozon ichak traktidan yaxshi surilmasligi okibatida kelib chikadi.

Ba'zi xollarda temir etishmovchiligi kamkonligi surunkali tuyib ovkatlanmaslik va och kolishlar okibatida yuzaga keladi.

Anemiya nafakat onaga balki xomilaga xam ta'sir kursatadi. U fetoplastentar etishmovchilik, ona kornida xomilaning rivojlanmay kolishiga olib kelishi mumkin. TTA ning ogir formasi esa perinatal kasalliklarga eki ulimga sabab bulishi mumkin.

Ma'lumki TTA si bulgan xomilador aellardan TTA bor bolalar tugiladi va bu bolalarning akliy xamda jismoniy orkada kolishi, immun. Statusining buzilishiga olib keladi. Onasidan TTA bilan tugilgan bolalarning teng yarmida yarim yildan keyin anemiya aniklangan. Temirni bolaga etkazib berish bevosita aktiv jaraen xisoblanib, uning mikdori ona konidagi temir mikdoriga boglik. Xatto onada yashirin siderepeniya bulganda xam chakalokda temir zapaslari kam buladi va bu keyinchalik siderepeniyaning avj olishiga va yangi tugilgan chakaloklarda anemiyaga olib keladi.

TTA diagnostikasi: Xomiladorlik davrida TTA ni aniklashda eng kulay usul laborator tekshirish xisoblanadi. VOZ ning ma'lumotiga kura xomiladorlarning TTA asosiy kriteriyalari bulib: gemoglobin mikdori – 110 g/l va past, eritrostitlar mikdori $3,5 \times 10 - 12$ g/l, rang kursatgichi 0,85 dan past, gemotokrit 0,33 past, zardobdagi temir mikdori 12,5 mmol/l dan past. TTA si boshka anemiyalardan shundan farklanadigan, unda asosiy kursatgichlari bulib, rang kursatgichlarining pasayishi, eritrostitlarning gipoxromiyasi, zardobdagi temirning pasayishi kon zardobidagi temir boglash xususiyatining yukoriligi xamda klinik giposideroz belgilari buladi.

Ma'lumki, gipoxrom anemiyada eritrostitlarning morfologiyasi uzgaradi, ular turli shaklda (poykilostitoz), bir xil razmerda bulmasligi (anizostitoz), kon surtmasida kichik xujayralar (mikrostitoz) kuzatiladi (urtacha eritrostitlarning xajmi 80 mkm, eritrostitlarning kam muddat yashovchi poykilostitlari va anizostitlar kizil kon tanachalarning elektrolit balansi buzilishi natijasida va spektrin oksilining membrana strukturasi buzilishlaridan kelib chikadi. Retikulostit mikdori normada (1,2 %) eki bir oz kutarilgan buladi. Suyak kumigida TTA da gipoxromiya va eritrostitlarning mikrostitozi kuzatiladi. Zardobdagi temirni aniklash katta diagnostik axamiyatga ega. Anik javobni olish uchun 5-7 kun temir preparatini kabul kilish kerak. 5-7 kun. Gacha esa temir preparatlarni kabul kilishi kerak emas. Chunki bu davrda tekshirish uchun kon olinadi.. Temir tanikligi anemiyada (TTA) zardobdagi temir mikdori 12,5 mkm. g/l ga teng buladi..

Temir tankisligi anemiyasining yashirin kurinishida kasal uzini yaxshi sezadi. Gemoglobin eritrostiti normada, bu kursatgichga ferritin dinamikasi ta'sir etmaydi. Latent temir tankisligining yukori progressiyasida gemoglobin mikdori kamayadi. TTA si rivojlanadi. TTA sida temir uzgarishlaridan tashkari oksil almashinuvida xam uzgarish buladi. Gipoproteinemiya fakat ogir anemiyada kuzatiladi. Engil va urta anemiyada esa gipoalbuminemiya disproteinemiya bilan birga kuzatiladi. Bu vaktida A va B frakstiya xisobiga globulin mikdori oshadi. Bu esa xomilador aelda immunologik statusining uzgarganligini kursatadi.

Kasallikning ogir xolatida yukori gipoalbuminiya, gipoproteinemiyaning yukori bulishi xomiladorlarda shishning rivojlanishiga sabab buladi.

DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKA

TTA sini siderakrestik anemiya va talassemiyadan ajratib bilish kerak. genetik va ortirilgan sideroakrestik anemiyada ferrin almashinuvining buzilishi ionda temir eritroid xujayralarga utmaydi. Natijada rang kursatgichining tez pasayishi va zardobda temir mikdorining oshishi kurinishidagi anemiya rivojlanadi. Buning natijasida suyak kumigidagi kizil ilikning ta'sirlanishi va yukori mikdorda temir chukmaydigan eritroid xujayralarning xosil bulishi kuzatiladi.

Talassemiyada Nv ning pasayishi va nisbatan rang kursatgichining pasayishi, zardobdagi temir mikdorining oshishi kuzatiladi. Sichkonsimon eritrostitlarning paydo bulishi xarakterli. Bir vaktning uzida gemolitik sindromning barcha simptomlari kurinadi. Bundan tashkari temir tankisligi anemiyasini megoblastik anemiya va vitamin V 12 tankisligi anemiyasi bilan dif. diagnostika kilish kerak. Bularning klinikasida kup xollarda gipoxrom, kamdan – kam xollarda normaxrom anemiya kuzatiladi. Bu xolatda zarbdorni temir mikdori normada eki ozgina kutarilgan bulishi mumkin.

TEMIR TANKISLIGI ANEMIYASINI DAVOLASH.

TTA oson va tez davolanadi. Agar davolash tugri tanlangan bulsa, natija 2-3 xaftadan keyin kurinadi. TTA kompleks terapiya. Ovkat rejimi bilan yangi dori vositalarni birga kullash bilan birga olib boriladi. Ovkat tarkibida 2-xil temir bor, gemga tegishli bulgan va gemga tegishli bulmagan. Gemga tegishli bulgan temir Nv va mioglobini asosini tashkil kilib, gusht va balik tarkibida buladi. Bular ovkat tarkibida kam bulishiga karamasdan suriladigan temirning asosiy kismini tashkil etadi. Gemga boglik buladigan temir barcha usimlik maxsulotlari tarkibida buladi. Askorbin kislotasi temirni surilishini yaxshilaydi. Ovkatdan keyin choy ichish temir surilishini pasaytiradi. Temir surilishini yaxshilaydigan asosiy maxsulotlarga gusht va jigari kiradi. Bu vaktida jigari xom va yarim xom eyish shart emas, chunki jigardagi temir maxsulot kovurilgan eki kaynatilgan bulsa xam yaxshi suriladi: olma, sabzi, lavlagi tarkibida metalning kup bulishi kasallik tez davolanadi degan fikrga asos bulolmaydi. Xayvon va usimlik maxsulotlaridan tarkib topgan ovkat tarkibida gem shaklidagi va temirning 2-valentli va 3-valentligini saklaydi. Ammo bulardan fakatgina gem shaklidagi va temir 2 ning kurinishidagilar suriladi. Temirning surilishi xamma maxsulotlarda bir xil. Gushtdan 12 – 18 % jigardan 5-11 %. Tuxumdan, nondan, karamdan va lublo, loviyadan 13 %. Xozirgi vaktida temir tankisligi anemiyasini davolash temir preparatlari bilan olib boriladi. Aytib utish kerakki, gemotransfuzya kasallikning asosiy patogenetik davosi xisoblanmaydi. TTA da

V 12, V1, V 6, folievaya. k-ta, Si, preparatlari norastional kullash temir preparatlarining terapevtik effektivligini oshirmaydi.

Temir preparatlarini oral kullash kulay, terapevtik effekt parenteral kullagandan sekinrok, lekin parenteral kullaganda kushimcha ta'sir kuprok uchraydi va ogirrok kechadi. Allergik reaktsiya, infiltratning paydo bulishi, kechrok organizmda temirning tuplanishi xolatlarini kuzatiladi. Temir preparatlarini fakat anik diagnoz kuyilgach kullash kerak. Umumiy kon analizi, zardobdagi temir konstantrastiyasi va zardobning temirning boglash xususiyati bulishi kerak. TTA ni davolashda Nv ni oshirish uchun 300 ml/g – 100 ml/g 1 sutkada temir tushishi kerak. Normaga nisbatan temir surilishi 25-30 % ni tashkil kiladi. Agar temir zapasi 37 % bulsa, shuning uchun sutkasiga 100 mg – 300 mg. gacha temir 2-valentligi tavsiya kilinadi.

Yukori dozadagi temir preparatlari buyurish axamiyatga molik emas, chunki bunda temir surilishi oshmaydi. Temir preparatlari bilan davolash davomiy bulishi kerak. Retikulozitlarni oshishi davolash adekvat bulganda, etarli bulganda, 8-12 kunda kuzatiladi, Nv mikdori oshishi 3 xaftagacha kuzatiladi.

Kizil kon tanachalarining normallasishi 8 xaftadan keyin kuzatiladi, lekin kasalning axvoli oldinrok yaxshilanadi. Nv va eritrostitning mikdorining normallasuvi bilan davolash tuxtatilishi tavsiya kilinmaydi. Chunki aniklanishicha Nv ning oshishi bu organizmda depo xolatida temir mikdorining tuplanganligi degani emas. Davolashning 2-3 oyidan keyin anemiyaning gemostatik belgilari yukoladi. Bunda davolash xali tuxtatilmaydi, lekin doza 2 martagacha kamaytiriladi. Bunday davolash kursi yana 3 oy olib boriladi. Dori vositasini tanlaganda 2-valentli temir mikdoriga e'tibor berish kerak.

Saribifer Durules (100 mg) sutkasiga 1-2 tabletka kabul kilishi mumkin. Bundan tashkari bu dori vositalaridan temir sekin ajraladi, uzok vakt davomida suriladi va oshkozon – ichak traktining zararlanishi chastotasiga pasaytiradi. Kup vositalar tarkibiga askorbin kislotasi kiradi, u temirning surilishini kuchaytiradi. Xomiladorlik paytida tarkibida askorbin kislotasi bor, temir preparatlari, Saribifer Durules, askorbin kislotaning borligi 25 marta temir mikdorini oshirishi kerak. TTA ning engil formasi bilan kasallangan xomiladorlarda 2-valentli temir mikdori 50 mg. dan oshmasligi mumkin, chunki kup katta dozalarda dispepsiya rivojlanadi. TTA ning ogir formalarida sutkalik temir 2 ning dozasi 100-200 mg. gacha oshirilishi mumkin. Esda tutish lozimki, ovkat tarkibidagi fosfor kislotasi, tuzlar, kalstiy temir surilishini kamaytiradi. Hidrolis alyuminiy va magniy tuzlari xam shunday xususiyatga ega. Temir dori vositalarini ovkatdan oldin kabul kilinganda, temir yaxshi suriladi, biroq davolash davomida dispensiya xolatlarini yuzaga kelganda dori vositalarini ovkatga kushish mumkin. (ovkatlanishdan oldin eki keyin).

Kuyidagi xollarda Temir dori vositalarning terapiyasi noeffektiv bulishi mumkin:

1. TTA ning bulmasligi;
2. Etarli bulmagan doza;
3. TTA larni etarli davolanmasligi;
4. Ichakda surilishining buzilishi;
5. Temir surilishini pasaytiruvchi dori vositalarini kabul kilish;
6. Yashirin kon ketish (gemorroy va boshkalar).

Kuyidagi antianemik preparatlar xomiladorlik davrida kamkonlikni davolash uchun yaxshi natija beradi.

1. Fe essenstial iron 960 mg.dan 1 tabletkadan 1 maxal 20 kun davolanadi.
2. Tardiferon 1 tabletkadan 1 maxal, ertalab nonushtadan oldin, ogir darajali temir etishmovchilik anemiyasida 1 tabletkadan 2 maxal ovkatdan oldin beriladi.
3. Ferrum – Lek (sirop, tomchi, chaynaladigan tabletkalar xilidan).
 - a) chaynaydigan tabletkalar 1 kunda 1 tabletka chaynash uchun beriladi.
 - b) sirop 2 choy koshikda 2 maxal ovkatgacha beriladi.
 - v) tomchi xolda esa 15 tomchidan 2 maxal ovkatdan keyin beriladi.
4. Globeks 304 mg. 1 tabletkadan 2 maxal ovkatdan keyin beriladi.

Bu preparatlar vrach tomonidan buyurilib, ichish davomiyligi esa anemiyaning darajasiga va preparatning turiga karab tavsiya etiladi.

Xomilador va tukkan ayollarda pielonefrit.

Pielonefrit - xomilador aellarda kup uchraydigan buyrak kasalligi xisoblanadi. Bu infekstion zararlanish 6-10% xolatlarda uchraydi. Pielonefritning (PN) paydo bulishiga xomiladorlik davridagi gormonal uzgarishlar, usaetgan bachadon bilan siydik yullarining kisilishi, organizmda infekstiya manbalarining bulishi (angina, karioz tishlar, furunkulez va boshkalar) sabab buladi. Plastenta tomonidan ishlab chikariladigan progesteron gormoni ta'sirida ichak, siydik pufagi, siydik yullari sillik mushaklari bushashishi sodir buladi. Xomilador aellarda kabziyat va siydik passajining susayishi kuzatiladi. Yukori siydik yullarida urodinamika va buyraklarda kon aylanishining buzilishi kuzatiladi. Siydik yullarida kengayishlar, uzayishlar, egrilanishlar va tugun xosil bulishi sodir buladi va buyrak jomchalarida bushligi kengayadi. Bunday sharoitlar esa infekstiyaning uretra, siydik kopining subepitelial kavat tukimasidan buyrak jomchalariga utishi osonlashadi. Siydik yullaridagi tusiklar: toshlar, rivojlanish anomaliyalari va egriliklar infekstiyaning rivojlanishiga sharoit yaratib beradi. Gestastion PN kelib chikishiga buyrakda yashirin kechadigan infekstiya uchun kulay vaziyat vujudga keladi: gematogen yul bilan kelib kolgan infekstiya yukori siydik yullarida urodinamikaning buzilishi va buyrakda kon aylanishining buzilishi natijasida chikib ketishi kiyinlashadi. Dizuriya, siydik kopining funkstiyasining buzilishi, tonusining pasayishi natijasida xajmining oshishi yukori siydik yullaridan siydik evakuastiyasining emonlashuvi infekstiyaning uzok turib kolishiga va buyraklarda yalliglanish jaraenining vujudga kelishiga sabab buladi. Patologik jaraen buyraklarning interstistial tukimasidan boshlanadi va buyrak kanalchalarining sklerozlanishi, kisilishi bilan tugaydi, natijada buyraklarning konstentrastion xususiyati erta buziladi. Mana shu fon natijasida buyrak gipertenziyasi rivojlanishi mumkin, bu xolat 20% PN bulgan xomiladorlarda uchraydi. Arterial gipertenziyaning emon sifatli kechishi buyrakning bujmayishi va surunkali buyrak etishmovchiligiga olib keladi. Siydik yuli devorining infistirlanishi uning peristaltikasini buzadi va siydik staziga olib keladi. Buyrak jomchalarida joylashib olgan infekstiya toshlar xosil bulishiga olib keladi va ular siydik yullari epiteliysini jaroxatlaydi. Natijada patologik xalka xosil buladi: xomiladorlik siydik evakuastiyasini pasaytiradi, infekstiya rivojlanishiga sabab buladi, u esa stazni ogirlashtirib patologik jaraenni

chukurlashtiradi. Buyraklarda yalliglanish jaraeni kupincha bolalik davrida, balogatga etish davrida boshlanadi va simptomsiz kechadi, xomiladorlik, tugrukdan sung esa kuzgaydi.

Xomiladorlarda pielonefrit kuprok – 48%, tukkanlarda kamrok – 35%, tugaetganlarda undan xam kamrok – 17% uchraydi. PN kuzgatuvchilari shartli patogen mikroorganizmlar xisoblanadi. Ichak taekchasi 36 – 88% uchraydi va buyrak jomchalari, buyrak atrofi kletchatkasi va koptokchasining bujmayishiga olib keladi. Protey(5-20%) uzining fermentlari bilan oksil va mochevinani ammiak va boshka moddalarga parchalaydi, bu parchalanish maxsulotlari esa buyrak va siydik yulining epiteliyini jaroxatlaydi. Bu infekstiya natijasida toshlar xosil buladi va kaytalanishga moyil buladi. Bundan tashkari xomiladorlar siydigidan klebsiella, enterokokklar xam topiladi. Ammo PN ning asosiy kuzgatuvchilari grammanfiy mikroorganizmlardir – D va V guruxga kiruvchi streptokokklar, stafilakokk va mikrokokklar. Candida, Mycoplasmahominus, Ureaplasmaurealyticum, Trichomonasvagenalis, anaerob bakteriyalar xam buyrakda yalliglanish jaraenini chakirishi mumkin. Uzoq davom etgan jaraenda bir kancha mikroorganizmlar, yangi jaraenda esa bitta kuzgatuvchini topish mumkin.

Yukorida sanab utilgan kuzgatuvchilar gematogen, kamdan-kam xollarda yukoriga kutariluvchi yul bilan utadi. Birlamchi uchok mindalinalarda, karioz tishlarda va siydik va jinsiy organlarda buladi. Tugrukdan sung esa infekstiya manbai bachadon xam bulishi mumkin.

Pielonefrit kasallangan xomiladorlarning 87% uning xuruji 22-28 xaftaligida, ya'ni xomiladorlikning 2- uch oyligida sodir buladi.

Tugrukdan keyingi PN tugrukqacha bulgan surunkali jarayonning kuzishi yoki kasallik davomi bulishi mumkin. Kasallik tugrukdan keyin 4,6,12 kunlar rivojlanadi.

PN ning utkir va surunkali formalari mavjud. Surunkali PN ning kuzishi utkir yalliglanish jarayonidek kechadi.

Utkir PN xomiladorlar va tuguvchilarda birdan boshlanadi: tana xarorati oshishi, kaltirash, intoksikasiya, adinamiya, til karash bilan koplangan, kuruk nafas, puls tezlashgan. Bunga yana maxalliy ogriklar belda, korinning yukori kismiga tarkaluvchi, siydik yuli buylab, chov soxasiga, son, jinsiy lablar soxasiga tarkaladi, keyinchalik ogrikning kuchayishi intoksikasiya belgilari usishi, gektik xarorat, buyrak tukimasida usib boruvchi destruktiv uzgarishlar namoyon buladi (apostematoz nefrit, buyrak karbunkuli). Yalliglanish jarayoni buyrak kapsulasiga, buyrak atrofi tukimasiga utishi mumkin. Kamdan-kam xollarda septik shok kuzatiladi. Ba'zan PN klinik belgilarisiz utishi mumkin, isitma, kaltirash, maxalliy ogriklar bulmasligi mumkin. Asosan ayollarda kuzatiladi kaysiki xomiladorlik vaktida antibakterial terapiya utkazilgan buladi.

Ayrim xollarda utkir PN utkir appendistit, utkir xolestistit belgilariga uxshash bulganligi uchun diagnostik, taktik xatolarga olib kelishi mumkin. Tuguvchi-larda PN tugrukdan keyingi birinchi kunlarda tugrukdan keyingi kasallik sifatida (endometrit, metroflebit) baxolanadi. Ba'zan PN genitallyadagi tugrukdan keyingi infekstion kasallik bilan birga keladi.

Zamonaviy sharoitda surunkali PNning xomiladorlik vaktida kaytalanadigan yashirin kechki formasi bor. Surunkali PN simptomsiz bakteriuriya, piuriya belgilari bulishi mumkin. Xomiladorlik vaktida u 6-8% barcha ayollarda uchraydi.

Xomiladorlik va tugrukning kechishi.

PN xomiladorlik kechishiga, xomila xolatiga noxush ta'sir kursatadi. Preeklampsiya 40% xollarda kasallarda, perinatal ulim 25-50% ni tashkil etadi. Yangi tugilganlarda ichki infekstiyalanish belgilari topiladi. Ular tugrukdan keyingi yiringli-septik kasallikka duchor buladi. Ba'zi bolalar tugma vezikulalar bilan tugiladilar, lekin birortasida tugma PN bulmaydi.

PN formasi buyicha 3 darajaga bulinadi:

1. Xomiladorlik va tugruk vaktida yuzaga keladigan utkir PN.
2. Surunkali PN bilan kasallangan xomiladorlar.
3. PN gipertenziya bilan yoki azotemiya yoki yagona buyrak bilan bulgan xomiladorlar.

1-2 xavfli guruxda xomiladorlik muddatini oyida 2 marta siydik xolatini

kuzatish sharti bilan va nefrolog nazoratida bulishi bilan uzaytirish mumkin. 3-davrda xomiladorlik takiklanadi, chunki birdan ayol axvoli yomonlashishi mumkin.

Gospitalizastiyaga kursatma:

1. Xomiladorlik asorati yuzaga kelganda.
2. Xomiladorlik turli muddatida PN ning kuzishi.
3. Kritik muddatlarda (22-28) buyrak funkstional xolatini aniklash va tekshirish maksadida.
4. Xomila gipoksiyasi va gipotrofiyasida.

Urologik operastiyaga kursatma bulganda, avval operastiya kilinadi, keyin xomila xolati aniklanadi. Xomiladorlikni tuxtatish buyrakdagi yiringli jarayonlar kechishini yaxshilaydi. Davo buyrak funkstiyasi tiklanishiga karatilgan. Asosiy e'tiborni PN bilan kasallangan ayollarda xomiladorlik asorati profilaktikasiga karatish kerak., A/B dinamikasini kuzatish, tana vaznini, bachadon tonusini, xomila xolatini kuzatish, muddatiga etmagan xomiladorlik profilaktikasini utkazish.

Pretoksikoz belgilari yuzaga kelishi bilan preeklampsiya faol profilaktikasini utkazish, diurez stimulyastiyasi, ayollar konsultastiyasida PN kuzishi profilakti-kasini utkazish kerak. Utkir PN da kon taxlilida leykostitoz, neytrofillarning chapga siljishi, ifodali gipoxrom anemiya, SOE oshishi bilan xarakterlanadi. Surunkali PNda utkir jarayonning faollashishi PNga nisbatan davrida konda kam uzgarishlar buladi, lekin anemiya yakkol ifodalangan. Konni bioximik tekshirganda

Xomiladorlar va tukkan ayollar glomerulonefriti.

Kuzgatuvchisi A guruxiga kiruvchi β –gemolitik guruxiga kiruvchi streptokokk xisoblanadi. Zardob vakstinali glomerulonefrit xam extimol shunday yuzaga kelgan.

Utkir glomerulonefrit (GN) 10-12 kundan keyin streptokokk etiologiyali angina va sensibilizastiyalovchi faktor-emlash ta'siri natijasida paydo buladi. Yuzda shish, xansirash, bosh ogrigi, bel soxasida ogrik, oliguriya, gematuriya kuzatiladi, A\B kutariladi. 2-3 xaftadan keyin klinika birdaniga uzgaradi. Shish yukoladi, poliuriya, A\B pasayadi. Proteinuriya va gematuriya saklanadi. Kupincha xomiladorlikdagi utkir GN xomiladorlik kechki toksikozining ogir formasi kurinishida tashxislanmaydi va baxolanmaydi. Barvakt (28 xaftagacha) nefropatiyaning paydo bulib gematuriya va konda antistreptolizin va antigialuronidaza titrining oshishi(1:350dan kup) GN ga shubxalanishga olib keladi. Utkir GN 1 yil davomida izsiz utib ketmasi uni surunkali xolatiga utishi deb tashxis kuyiladi.

Surunkali GNning asosiy klinik formalari:

Nefrotik formasi (eski atama (nefroz-nefrit) buyrakning yalliglanish va distrofik uzgarishlarni birga kelishi bilan xarakterlanadi. Bemorda massiv shish, proteinuriya (3-12-18g-l),gipoproteinemiya (40-

50 gl) va giperxolesterinemiya (7,7 mmoldan kup), gematuriya, buyrak filtrastion funkstiyasini pasayishi kuzatiladi, A\B kutarilmaydi.

Gipertonik forma kuchsiz namoyon bulgan buyrak simptomlari - gematuriya, proteinuriya, stilinduriya bilan birga A\Bni kutarilishi, kuz tubidagi uzgarishlar, arteriyaning torayishi bilan xarakterlanadi.

Aralash forma (shish-gipertonik) tomir yalliglanish va ular bilan boglik bulgan gipertoniya (yurak gipertrofiyasi va kuz tubidagi uzgarishlar) xamda distrofik uzgarishlar proteinuriya, gipoalbuminemiya, shishlar kuzatiladi. Bu formada eklampsiya tutkanoklari, asosan kasallik kuzgaganda kuzatiladi (kechki toksikoz bor yoki yukligiga boglik emas). **Latent forma** (kurinarsiz proteinuriya) – kup uchraydigan forma – gipertoniya va shishsiz, kam mikdordagi proteinuriya yoki GN ga xos bulgan simptomlarsiz kechadigan doimiy gematuriya bilan kechadi.

Surunkali GN ni xomiladorlarda kuzgashi kam uchraydi, asosan GN klinikasi kurinishida buladi. Konda S-reaktiv oksil va antistreptolizin, antigialuronidaza titri oshadi. GN larning xamma formasi oxir-okibat terminal boskichga utadi, bu boskich uremiya klinikasiga tugri keladi. GN diagnostikasi siydikda oksil, stilindr, eritrostit topishga asoslanadi. Nechiporenko buyicha tekshirishda siydikda eritrostit va stilindrlarning oshishi aniklanadi. Kupgina bemorlarda buyrak koptokchalari filtrastiyasi kamayadi (60 mldan kam), bu GNning asosiy erta funkstional belgisi xisoblanadi, chunki patologik jarayon koptokcha kapillyarlarda rivojlanadi. Normada buyrak koptokchalari filtrastiyasi soglom ayollarda I uchoylikda -130ml/min, II uchoylikda 115 ml\min, III uchoylikda- 110 ml\min, oxirgi xomiladorlikning 3 xaftasida 90 ml\min.

Kondagi koldik azot mikdorini aniklash muxim kursatkich xisoblanadi. (normada 2-4 g-l-20-40mg%) va uning komponentlari mikdorini: mochevina (normada 8,3mmol-l dan 40mg% gacha), kreatinin (normada 177mkmol-l-2mg%). A-B kktarilganda (140-90 va undan ziyod) kuz tubi xolati va EKGni kuzatib turish kerak. GN kuzgashi ga shubxa kilganda kondagi S-reaktiv oksil va antistreptolizin, antigialuronidaza titrini aniklash kerak. Xomiladorlarda GNning faol patogenetik terapiyasi mumkin emas, chunki bu maksada kullaniладigan yukori dozadagi kortikosteroidlar (60 mg gacha prednizolon 1 sutkada), stitostatik va immunodepressantlar (imuran, azatiopirin, delagil) embriotoksik va teratogen ta'sri tufayli kat'iyan man kilinadi. Xomiladorlarda surunkali GN kuzgashi fazasini davolash, asosan simptomatik; stasionarda olib boriladi.

Nefrotik sindromda buyrak azot chikarish funkstiyasi buzilmagan bulsa, yukori mikdordagi oksilli parhez kuniga 120-160g tavsiya kilinadi. Siydik bilan yukotilgan oksil mikdorini tuldirish uchun kuniga 5g gacha, suyuklik 800 ml gacha kamaytirilishi kerak.

Gipertonik formasida fakat oksilni 5g gacha chegaralash kerak.

Aralash formasida tuz 5 g gacha, suyuklik 800-1000ml gacha chegaralash kerak; sutkada oksil mikdori 70 gr dan oshmasligi kerak. **Latent** formasida oksil, yog, uglevod, osh tuzi va suyuklik xar kungi mikdorda buladi. Shishda saluretik siydik xaydovchilar vositalar: 3-5 kun davomida kuniga 1 maxal yoki kunora gipotiazid 25-50-75 mg; stiklotiazid 0,5-1 mg, uregit 0,05-0,1-0,2 gr; laziks (furosemid) -0,04-0,08g va kupincha peroral yoki 1-2 ml vena ichiga. Siydik xaydovchilar ertalab naxorda ichiladi. Ular nafakat natriyni, balki K ni chikaradi, shu vaktning uzida bemorga KCI kuniga 1g dan 3-4 marta tavsiya kilish kerak. Bundan tashkari veroshpiron (aldokton) K ni organizmdan chikarmaydi. Uni kuniga 4-8 marta tavsiya kilinadi, keyinchalik doza pasaytirib boriladi.

Gipertoniya davolash uchun kuyidagi preparatlar, rezerpin 0,25 mg dan kuniga 3-4 maxal; dopegit - ,25 mg dan kuniga 3-4 maxal; klofelin (gemiton) 0,075 mgdan kuniga 2-4 marta; ismelin, oktdin 0,01-0,025 mg dan kuniga 1-2 marta, keyinchalik dozani 0,025 gr kuniga 4 maxalgacha oshiriladi. Yukoridagi preparatlar ogiz orkali ichiladi. A\B gipotenziv va siydik xaydovchilar vositasida tezrok tushadi. Gipoproteinemiya oksil defistiti plazmada albumin kuyish bilan tuldiriladi. GN bilan

kasallangan bemorlar dispanser uchyotida turishi va oyida 2 maxal okulist va terapevt kurigidan utishi kerak. 12 xaftagacha stasionar sharoitida GN klinik formasi aniklanib, xomiladorlik davom etishi masalasi echilishi kerak. GN bilan kasallangan bemorlar ona va xomila uchun xomiladorlik va tugruk xavfi buyicha 3 darajaga bulinadi:

1 daraja - surunkali GN ning latent va gipertonik formasi, agar A\B xomiladorlikkacha normal stifrgacha pasaygan bulsa.

2 daraja - surunkali GN ning nefrotik formasi.

3 daraja - surunkali GN ning aralash va gipertonik formasi, utkir GN va surunkali GN ning kuzgashi, nefritning azotemiyali turli formasi.

GN ning latent formasida xomiladorlik saklanishi mumkin, gipertonik formasida xam agar xomiladorlikkacha A\B normallashtirilgan bulsa xomiladorlik saklanishi mumkin. Nefrotik formasida xam agar ayolning terapevtik yoki nefrologik bulimlarda, kechki muddatlarda esa akusherlik stasionarida davolanishga sharoiti bulsa, xomiladorlik davom etishi mumkin. Xomiladorlikning gipertonik va aralash kechuvchi formalarida, utkir nefritda, surunkali formasi kuzish boskichida, turli formalarning azotemiyali boskichida xomiladorlik muxlatiga karamay tuxtalishi kerak va ma'n etiladi.

Xomilaning ona korni ichi ulimini oldini olish maksadida GNning ogir klinik formasida, asosan, chukur gipertoniyali formalarida vaktidan oldin tugruk tavsiya etiladi. Tugrukni kardiomonitor nazorati ostida, spazmolitik, analgetik vositalarini kullagan xolda tabiiy tugruk yullari orkali olib borish maksadga muvofikdir. Abdominal tugruk akusherlik kursatmasi buyicha ona, xomila yoki ona va xomila tomonidan bulgandagina kullash mumkin. GN bilan kasallangan bemorlar agar preeklampsiya kushilgan bulsa, ularda normal joylashgan yuldoshni vaktidag oldin kuchishi kuzatiladi. Shuning uchun ularni kattik kuzatuv ostiga olish kerak.

Shomiladorlarni tuxtagandan keyin bemorlarni terapevtik stasionarga utkazish kerak.

Xomiladorlar va tukkan ayollar siydik-tosh kasalligi.

Xomiladorlarda siydik-tosh kasalligi 0,1-0,15 % xollarda uchraydi. Tosh xosil bulishiga asosiy sabab almashinuv jarayonining buzilishidir. Siydik-tosh kasalligixomiladorik vaktida yuzaga kelmaydi, lekin uning klinik belgilari avvalrok yashirin kechgan bulsa, avj olishi mumkin. Xomiladorlarda bunga asosiy sabab xomiladorlikdagi siydik sistemasidagi fiziologik xususiyatlar, toshning buyrakka, siydik yuliga va siydik pufagiga utishi uchun infekstiya kushilishi uchun yaxshi sharoit bulishidir.

Siydik-tosh kasalligining kup uchraydigan simptomi buyrak sanchigidir. Agar tosh buyrakda bulsa, ogrik bel, kovurga yoyi osti soxasida, jinsiy lablarga, songa tarkaladi; u kungil aynishi, kusish, meteorizm, gaz va axlatni saklanishi, dizuriya bilan birga kechadi. Pasternastkiy simptomi musbat buladi. Tutkanokdan keyin siydikda makro va mikrogematuriya aniklanadi. Xomiladorlik siydik-tosh kasalligini PN bilan asoratlanishiga olib keladi. Bu xolatda buyrak kolikasi isitma, kaltirash, piuriya, kon uzgarishlari (leykosit, neyetrofillarning taekcha yadrolilar tomonga siljishi) bilan xarakterlanadi. Siydik-tosh kasalligiga tashxisi anamnezga, ogrik xuruylari klinik belgilari xarakteriga va siydik taxliliga asoslanib kuyiladi. UZI da, xromostistoskopiya kosacha-jom apparatida toshlar borligini, siydik yulini tosh orkali kisman yoki tula okklyuziyasini aniklashga yordam beradi. Xomiladorlarda siydik-tosh kasalligi (STK) infekstiya kushilishi bilan asoratlanishi tufayli, pielonefritda kullaniladigan barcha chora-tadbirlar kullanilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulot 8

Akusherlikda rezus omilni o'rni.

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 80 coat	Talabalar soni: 8
Mashg'ulot shakli	Ma'ruza
Reja	Ekstragenital kasalliklar haqida tushuncha -Homiladorlarda kamqonlik kechishi -Homiladorlikda buyrak kasalliklari ko`rinishi -Homiladorlarda kamqonlikni erta diagnostikasi va davolash usullarini tanlash -Homiladorlarda buyrak kasalliklari ko`rinishi.
Mavzuning maqsadi: <ul style="list-style-type: none">- Bemor bilan mulokot kilishning professional kunikmalarni bilish;- Kamqonlik va buyrak kasalliklarini laborator va asbobiy tekshirish usullarini kullab, klinik kurikdan utkazish;- Asosiy ekshirish usullarini kullash; <p>Kamqonlik va buyrak kasalliklarini keyin ambulator poliklinik va uy sharoitida ayolni kuzatish va reabilitastiyani tashkillashtirish;</p> <ul style="list-style-type: none">- Zamonaviy davlash usullarini kullashda maslaxatlar berish; <ol style="list-style-type: none">1. Bemor shikoyatlariga e`tibor berish.2. Kasallik tarixini yig`ganda olingan ma`lumotlar.3. Epidemiologik anamnez ma`lumotlarini aniqlash. <p>II bosqich. Maqsad:</p>	
Mavzuning vazifasi- - Asosiy tekshirish usullarini kullash; Kamqonlik va buyrak kasallikdan keyin ambulator poliklinik va uy sharoitida ayolni kuzatish va reabilitastiyani tashkillashtirish;	
Ta`lim berish usullari	Ko`rgazmali, ma`ruza, suhbat

Ta`lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy
Ta`lim berish vositalari	kompyuter, multimedia, slaydlar, mavzuga oid bemorlar va boshqalar
Ta`lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash.	Og`zaki nazorat:savol-javob.

1.2. Ma`ruza texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Auditoriya tozaligini nazorat qiladi. 2. Talabalarni mashg`ulotga tayyorligini tekshiradi 3. Davomatni nazorat qiladi. 	
1. O`quv mashg`ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Fanni o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish. 	
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalarni kichik guruhlariga bo`lib, mavzu bo`yicha savollarni beradi. 2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalaniladi. 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalaniladi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma`lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag`batlantiradi va umumiy baholaydi. 	<p>Kichik guruhlariga bo`linadilar</p> <p>Tomosha qiladilar</p> <p>Qatnashadilar</p> <p>Tinglaydilar va savollarga javob beradilar</p>
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Mustaqil ish beradi. 3. Uyga vazifa beradi. 	<p>Tinglaydi</p> <p>Yozib oladi</p> <p>Yozib oladi</p>

Rezus-immunizastiya.

Rezus faktor (Rh – faktor) – odam eritrostitlarining tugma sinfiy xususiyati bulib, uzida rezus antigen (izoantigen) saklaydi. Boshka kon sistemalari xususiyatlariga boglik bulmay, avloddan avlodga beriladi va odam butun xayoti davomida saklanadi. 85 % odam eritrostitlarida buladi va Rezus – musbat (Rh - +) deb ataladi. Boshka odamlar konida bulmaydi va rezus manfiy (Rh-) deyiladi.

Rezus sistemasida turli xil antigenlar bulib, ularni aniklashda maxsus zardoblar mavjud. Normada rezus antigenlariga tabiiy antitelalari uchramaydi. Birok xomilador ayol organizmida xomila rezus faktor immunizastiyasi yoki rezus musbat konni rezus manfiy konli restitentga kuyish natijasida antirezusning tulik yoki notulik formalarining immun antitelalari xosil bulish mumkin. Mana shunday immunizastiyalashgan restitentga rezus musbat kon kuyganda eritrostitlar buzilishi, reakstiyalar yoki asoratlar berishi mumkin.

«Rezus faktor» nomi makakus – rezus turidagi maymun nomidan kelib, chikkan. 1940 yilda avsrاليyalik olim Karl Landshteyner bilan (u 1990 yilda kon guruxini ochdi, 1930 yilda shu uchun Nobel mukofoti olgan). Amerikalik olim A.S. Viner mana shu maymun konida rezus faktor nomli antigenni aniklaydi.

Odam eritrostitlarida rezus faktor bulishi yoki bulmasligiga karab ular rezus musbat (Rh ++) yoki rezus manfiy (Rh - -) guruxga kiritiladi.

Aniklanishicha, 86 % evropoid odamlarda («ok») rezus musbat (99% xindular va osiyoliklar), 14% i rezus manfiy faktorlar (7 % afrikaliklar) buladi.

Rezus odam xayoti davomida uzgarmaydi. Konning «rezus musbat» xususiyati dominantgen, «rezus manfiy» esa restessiv gen xisoblanadi. «Rezus musbat» va «rezus manfiy» konlar bir – biriga nomutanosib. Chunki «rezus manfiy» individual koniga rezus faktor tushsa, antitela (immunreakstiya) xosil bulishi, u esa anafilaktik shokka olib kelishi mumkin.

«Rezus manfiy» bemorlarga fakat «rezus manfiy» konni, «rezus musbat» bemorlarga xam «rezus musbat» xam «rezus manfiy» konni kuyish mumkin.

Rezus musbat faktorli erkak bilan rezus manfiy faktorli ayol turmush kurganda «rezus musbat» xomila tugilishi kuprok kuzatiladi.

Xomiladorlik davrida xomila antigenining oz mikdori xam ona koniga plastenta orkali utishi mumkin. Va antitelalar xosil bulishini chakirishi mumkin. (asosan agar bolada patologiya bulsa). Birinchi xomiladorlikda (ba'zan ikkinchisida xam) konda ularning kon konstentrastiyasi nisbatan kam buladi va xomila bu antitelalarining xech kanday ta'sirini xis kilmasdan rivojlanishi mumkin.

Kuyidagi xomiladorliklarda xolat uzgarishi mumkin: antitelalarning konstentrastiyasi oshib boradi, kam mikdorda bulgani uchun ular plastenta orkali xomila koniga erkin utadi va uning rezus – musbat eritrostitlarini (gemoliz) va kon yaratuvchi organlarini zararlaydi. Buning natijasida bolada gemolitik kasallik paydo buladi.

Rezus nomutanosiblik barvakt namoyon bulganda bola tashlashlarga yoki barvakt tugruklarga, ulik bola tugilishiga sabab buladi. Rezus nomutanosiblikka xomiladorlikning 8-xaftasida taxlil kilinadi va konda rezus – antitelalar borligi aniklanadi. Bu agar oldin abort, bola tashlashlar yoki kon kuyish jarayonlari bulganda muxim xisoblanadi.

Xozirgi kunda tibbiyotda gemolitik kasallikka karshi kurash olib borishda chakalokka tezda rezus- manfiy kon kuyish yoki ona immunizastiyasini oldini olish uchun anti Rh - antitelalar kiritishdan foydalaniladi.

Agar «rezus – manfiy» ayol «rezus musbat» erkakdan ikkinchi yoki uchinchi farzand xoxlaganda, u albatta xakim bilan maslaxatlashishi va konda rezus antitelalarga tekshirishdan utishi kerak. Odam konida rezus faktorga karshi tabiiy antitelalar bulmaydi. Immun antirezus – antitelalar rezus – antigen organizmga tushganda organizmga turi kelmaydigan kon kuyganda yoki rezus musbat xomila tugilganda xosil buladi.

Rezus manfiy odam konida antirezus – antitelalar bulishi organizmning rezus faktorga sensibilizastiyasi kursatgichi xisoblanadi.

Rezus faktor yakkol antigenli xususiyatga ega. Bitta rezus musbat konni rezus manfiy konga kuyish 50% xollarda antitelalar xosil bulishini stimullaydi.

Rezus manfiy odam immunizastiyasiga konni nafakat vena ichiga balki mushak orasiga yuborganda xam olib kelishi mumkin. Rezus manfiy konli ayollar immunizastiyasi kuprok rezus musbat xomila va tugilgan bola natijasida kelib chikadi. Juda kup tajribachilarning fikricha birlamchi stimolni oladigan eng yaxshi vakt – bu tugrukdvn keyingi davridir. Turli xildagi tugruk vaktidagi operastiyalar, asosan kul bilan yuldoshni ajratish, kesarcha kesish xomila eritrostitlarini ona koniga transplastentar utishni biroz kupaytiradi.

Bu xolatdagi ayollar immunizastiyasi transplastentar kon ketish kattaligiga boglik. Rezus musbat xomilali birinchi xomiladorlikdan keyin rezus manfiy ayollar sensibilizastiyasi 10% buladi. Agar rezus- manfiy ayol birinchi xomiladorlikda immunizastiyani oldini olgan bulsa, unda keyingi rezus musbat xomilali xomiladorlikda u yana 10 % xolda immunizastiyalanishi mumkin. AVO sistema buyicha ona koniga tugri kelmaydigan rezus musbat bola tugilsa, immunizastiya pasayadi.

Organizmning rezus faktorga sensibilizastiyasiga nafakat tugruk balki uz – uzidan yoki sun'iy ravishda xomiladorlikni tuxtatishiga xam olib kelishi mumkin. Sensibilizastiya rivojlanishiga eritrostitlarning transplastentar utishdan tashkari xomilaning kon guruxi va rezus faktor buyicha genotigi xam ta'sir kiladi. Bundan tashkari xomila jinsi, ona organizmining immunologik tolerantligi, xomiladorlikda organizm immunologik reaktivligining pasayishi, genetik faktorlar aloxida urin tutadi. Sensibilizastiya kaysi yul bilan rivojlansa xam, paydo bulgan immun xolat bir umrga koladi. Rezus faktorga sensibilizastiyalashgan ayol 1 – xomiladorlikdayok xomilasida gemolitik rivojlanishi mumkin.

Gemolitik kasallikning 3 xil turi bor:

- 1) Gemolitik anemiya sarikliksiz va istiskosiz
- 2) Gemolitik anemiya sariklik bilan
- 3) Gemolitik anemiya sariklik va istisko bilan



ARALASH FORMASI



Sarikliksiz va istiskosiz gemolitik anemiya – kasallikning kam tarkalgan va engil formasidir. Uning asosiy simptomi – teri koplamlarining rangparligi imoglobin va eritrostitlar soni kamligi bilan birga. Jigar va talokning biroz kattalashishi petexial toshmalar aniklanadi. Schwenzer (1953) fikricha, anemiya nafakat gemoliz natijasida balki ilik funkstiyasining tormozlanishi va undan etilgan va etilmagan eritrostitlar chikishining ushlanishi natijasida rivojlanadi.

Diagnoz klinikaga, gemoglabin va eritrostitlarning kondagi mikdoriga karab kuyiladi. Bolalar kup xollarda davosiz sogayadi. Ogir anemiya xolatlarida eritrostitar massani kuyish kursatma xisoblanadi.

Gemolitik anemiya sariklik bilan – gemolitik kasallikning ogirroq va kup uchraydigan formasidir. Asosiy simptomlari bulib, anemiya, sariklik, gepatosplenomegamiya xisoblanadi. Ogir xollarda markaziy nerv sistemasining zararlanishi simptomlarini kuzatish mumkin. Bola tugilgandan kogonok suvlarining, birinchi tugruk smazkalari, teri koplamlarining, kindik tizimchasining sarik rangda bulishi dikkatni tortadi. N.L. Vasilevskiy va Potter ma’lumotlari buyicha anemiya normoxrom yoki giperxrom xarakterda buladi va yakkol namoyon bulmaydi, bu ilikning va ekstramodulyar kon yaratuvchi uchoklarning retrastion aktivligi xisobidan bulishi mumkin. Eritroblast doimiy belgi bulmay, kasallik ogirligining kursatkichi bulib xizmat kiladi. Sariklikning paydo bulishi va kuchayishi konda bilvosita bilirubinning oshishi bilan belgilanadi.

Polacek fikricha, (1961) kasallik rivojlanishida tugruk vaktidagi bilirubin mikdori emas, balki uning soat buyicha usishining intensivligi rol uynaydi. Gemolitik sariklikda u 8,5 – 17,1 mk mol/l (0,5 – 1,0 mg%) gacha, soglom bolalarda 3,2 mk mol/l (0,9 mg%) gacha uzgaradi. Sariklikning oshishi bilan bola axvoli ogirlashadi, nerv sistemasining zararlanish simptomlari paydo buladi. Bularga tutkanok, titrashlar, gipertonus va boshkalar kiradi; «Yadroli sariklik» simptomlari rivojlanadi. Yadroli sariklik rivojlanishida bilvosita bilirubinning kritik darajasi 307,8 – 342,0 mk mol/l (18 – 20 mg%) ga teng.

Asosiy klinik belgilari	Gemolitik kasallikning ogir darajasi		
	I	II	III
Anemiya (kindik tizimchasi konida gemoglabin mikdori)	150 (15,2%)	149-100 (15,1-10,0%)	100 (10%)
Sariklik (kindik tizimcha konida bilirubin mikdori, mk mol/l)	85,5 (5,0mg%)	85,6 – 136,8 (5,1 – 8,0 mg%)	136,9 (8,1mg %)
Shish sindromi	Teri osti yog klechatkasi shishi	Shish va asstit	Universal shish

Gemolitik kasallikning ogirligi bola chala tugilish darajasi bilan xam aniklanadi, chunki bu xolda bolaning xayoti xavf ostida buladi. Chala tugilishning 3 ta darajasi bor. 37-38 xaftalik bola tugilishi I daraja, 35-36 xaftalik II daraja, 33-34 xaftalik III daraja xisoblanadi. Bu tugruk bilan boglik kasallikning darajalari shartlidir, chunki kasallik ogirlik darajasini aniklashda juda kup belgilar va tekshirishlar mavjud.

Gemolitik kasallikning okibati bola uchun tugrukni tugri olib borish, akusher va pediatrianing birgalikdagi ishi, davolash metodini tanlash va chakalokni parvarish kilishga boglik. Taklif kilingan sxema xomilaning antenatal tekshirish natijalarini yulga kuyishda va ularga taxminiy bir guruxga bulishga yordam beradi.

Gemotransfuziya xomilaga korin ichi va kindik tizimchasi tomirlari orkali bajariladi.

Bachadon ichi kon kuyishda rezus manfiy 0(1) gurux konning yuvilgan eritrostitlarning ishlatiladi. Operastiyani chizikli punkstion datchikli ultratovush nazorati ostida olib boriladi. Ignani xomilaning korin bushligiga jigarning pastki chegarasi va siydik pufagi oraligidan kiritiladi. Agar asstit suyukligi bulsa, sekin asperastiya kilinadi, sungra donor koni kiritiladi. Operastiya jarayonida xomila xolati doimiy kardiomonitorni kuzatuv ostida buladi. Xomila gemolitik kasalligini davolashning kuplab turlari tavsiya kilinadi, biroq ularning birortasi bu patologiyaning profilaktikasi va davolanishi uchun kafolat bermaydi. Antenatal davoning yukori effektiv metodlarini bulmasligi kuppina xollarda ona antitelalarining xomilaga ta'siri vaktini kamaytirish maksadida barvakt tugrukni chakirishga majbur kiladi. Birok bir narsani bilish kerakki, chala tugilgan bolalarning kupchili uladi. Xomila gemolitik kasalligida tugruk muddatini tanlash katta axamiyatga ega va xar bir xolatda bu masala individual echilishi kerak. Gemolitik kasallik ogirlik darajasini aniklashda kompleks tekshirish natijalari bulishi kerak. Buning uchun rezus – sensibilizastiyalangan ayollar xomiladorlikning erta muddatlaridan nazoratga turishi va akusher, immunolog kuzatuvda bulishi kerak. Xomiladorlikning birinchi uch oyligida (10, 24, 32 xafta) patologiya bulimlari sharoitida desensibilizastiyalovchi kursatma xisoblanadi. Xomiladorlikning 24 xaftadan keyingi muddatlarda xomila xolatini dinamik urganish, kogonok suvlarini ultratovush, kardiokografik tekshirish kerak buladi. agar bunda gemolitik kasallikning ogir formasi aniklansa, xomiladorlikni 30 xaftalik muddatidan kam bulmagan davrda tuxtatish kerak va xomilador ayolni agar anamnezida xomilasining antenatal davrda ulganligi kuzatilgan bulsa, takroriy tekshirish utkazish kerak buladi. Kasallikning biroz engilrok formalarida xomiladorlikning desensibilizastiyalovchi terapiya fonida uzaytirish mumkin. Bunda xomila axvolini dinamik kuzatish kerak, chunki kasallik tez progressiyalanishi mumkin.

ChAKALOKLAR GEMOLITIK KASALLIGINI DAVOLASH.

Xomila gemolitik kasallikning antenatal davrdagi profilaktika va davosi xozirgi kungacha k iyin masala bulib xisoblanadi. Xomila ona antitelalarining patogen ta'siri va bu ta'sirning asoratlari yukotish uchun juda kup metodlar ishlab chikilgan, biroq ularning birortasi etalicha effektiv emas. Shu maksadda immunoglobulin, medikamentoz va boshka metodlardan foydalaniladi.

Xomiladorlarda nospestifik desensibilizastiyalovchi terapiya maksadida vena ichiga 20 ml. 40% li glyukoza bilan 300 mg askorbin kislota, 2 ml 1 xli sigetin eritmasi, 100 mg kokarboksilaza gidroxlorid; jigar funkstiyasini yaxshilash maksadida metionin 0,5 g dan 3 maxal; tomirlar utkazuvchanligini pasaytirish uchun rutin 0,02 g 3 maxal; oksigenoterapiya; antianemik davvo; diazolin beriladi. Mikrostromkulyastiyani yaxshilash uchun keantinol nikotin (teonikol) 0,15 g 3 maxal beriladi.

V.I. Kalinicheva va boshkalar yukoridagi preparatlar kompleksiga tugrukdan 1-2 xafta oldin fenobarbital 150 ml 2 maxal tavsiya kilinadi. Avtorlar chakaloklar gemolitik kasallik chastotasining kamayganligini kurishgan.

Aytishlaricha, fenobarbiton jigar fermentlarining perenatal indukstiyasini kuchaytiradi. Shu maksadlarda yana ziksorin 100 mg 2 maxal (1 kursga 1000 mg) foydalanishi mumkin.

Izsensibilizastiyaning ogir kurinishlarida immunodepressiya maksadida xomiladorlikning 28 – xaftasidan boshlab prednizolon 0,005 g xar kuni beriladi, u antitelalar sintezini va allergik reakstiyalarini pasaytiradi, tomilar utkazuvchanligini susaytiradi.

